

TARIX FANIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING QO‘LLANILISHI

Oripov Bahodir Olimjon o‘g‘li

*Farg‘ona davlat universiteti Tarix fakulteti tarix yo‘nalishi talabasi**Email:bahodiroripov005@gmail.com.*MAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

*Received:11.03.2026**Revised: 12.03.2026**Accepted:13.03.2026*

KALIT SO‘ZLAR:

*Axborot
texnologiyalari,
kompyuter, internet,
elektron kutubxona,
metod, tarix, pochta,
skaner, Pedagogik
texnologiyalar, virtual**Ushbu maqolada Tarix fani soxasida raqamli texnologiyalarning kirib kelishi, axborot texnologiyalardan foydalanish, tarix darslarida innovatsion o‘qitish texnologiyalarining samarali tatbiq etish. Shuningdek pedagogik axborot texnologiyalarning o‘qitish tizimida keng qo‘llanilishi aytib o‘tiladi. Maqolaning asosiy maqsadi tarix fani jarayonida axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish hamda ularning ta’lim sifatini oshirish yo‘lidagi ahamiyati yoritib berilgan.*

Kirish

Yevropada XVIII asr oxirida muntazam va qulay pochta aloqasi paydo bo‘lishi bilan "yozishma orqali o‘qitish" usuli vujudga keldi. O‘quvchilar pochta orqali o‘quv materiallarini olishar, o‘qituvchilar bilan yozishma olib borishar va ishonchli shaxsga yoki ilmiy ish ko‘rinishida imtihon topshirishar edi. Rossiyada bu usul XIX asr oxirida joriy etilgan. XX asr boshlarida zamonaviy texnologiyalar tez sur‘atda rivojlandi, telegraf va telefon keng tarqaldi. Biroq ularning ta’lim jarayonida qo‘llanilgani haqida ishonchli ma’lumotlar yo‘q. Shu bilan birga, "yozishma orqali o‘qitish" davri davom etdi, butun dunyo bo‘ylab ko‘plab oliy o‘quv yurtlari bu usuldan foydalanib kelgan va hozir ham foydalanmoqda. Hozirda jahonning ko‘plab ta’lim muassasalarida «Raqamli tarix»

o'qitiladi. Jumladan, Buyuk Britaniyaning London qirollik kollejida taxsil olayotgan talabalar tomonidan kompyuter texnologiyalari va metodlarining imkoniyatlari va cheklovlarining mohiyatini anglash, XM, XST belgilari tilidan foydalanish qobiliyati, ma'lumotlar bazasini rivojlantirish va gumanitar bilim sohasida ushbu vositalarni qo'llash qobiliyati shakllantirish ko'nikmalarini oladi.

Asosiy qism

XX asrning 80-90 yillarida axborotlashtirish jarayoni deyarli barcha bilim sohalariga ta'sir ko'rsatib, tarix fanini ham qamrab oldi. Tarixchilar kompyuterlardan foydalanibgina qolmay, tezlik bilan rivojlanayotgan dasturiy va texnik vositalar ularni tarixiy tadqiqotlar uchun zarur bo'lgan vositaga aylantirdi. Bu esa tarixchi faoliyatida yangi axborot texnologiyalarini qo'llash uchun real imkoniyatlarni yaratdi. Kompyuter tarixchilar uchun ilmiy tadqiqot ishlarini yozish va tahrirlash vositasigina bo'lib qolmay, o'z ilmiy natijalarini va yutuqlarini e'lon qilish uchun qulay vositaga aylandi. Matn yoki tasviriy materialni kompyuter xotirasiga optik kiritish qurilmalari - skanerlarning paydo bulishi (1902 yilda telefaks nomi bilan) madaniyat, san'at tarixi, muzeyshunoslik va arxiv ishi bo'yicha tadqiqotlarga turtki bo'ldi. Bunga yana juda katta hajmga ega bo'lgan optik disklarning chiqarilishi ham sabab bo'ladi³².

Kompyuterlarning qo'llanilishi oddiy ilmiy hisoblardan keng miqyosdagi boshqaruvga, sodda fayllar ustida ishlashdan katta xajmdagi hududiy axborotlar ustida ishlash hamda ularni saqlashga qadar bo'lgan bosqichni bosib o'tgan. Hozirda biz bu sohadagi yangi bir yo'nalish-hududiy axborotlarni qayta ishlashning keng miqyosda joriy etilishini kuzatmoqdamiz. Shubhasiz, bu yerda geografik axborot tizimlari muhim o'ringga egadir. Arxeolog ma'lum bir yodgorliklarda tadqiqot ishlari olib borish jarayonida ko'plab arxeologik topilmalarga duch keladi. Arxeologik manbalar hajmining ko'pligi va ularni o'rganish ishlari ko'lamining kengayishi esa arxeologiyada zamonaviy axborot texnologiyalarining qo'llanilishini taqozo etmoqda.³³

Tarix fanlari ichida aynan arxeologiya birinchilardan bo'lib matematik usullar va axborot texnologiyalariga murojaat etgan fan sohalaridan biri hisoblanadi. Kompyuter va matematika usullarining arxeologiyada qo'llanilishi tarixiga nazar tashlasak, XX asrning 20-yillaridan boshlab rus arxeologlari tomonidan tadqiqotlar jarayonida taxminiy statistika va geometriya usullari qo'llanila boshlandi.

³² Muminov, Xusanboy. Raqamli tarix [Matn]: darslik / X. Muminov. – Toshkent: "Nurafshon bizness", 2022. – 47 b.

³³ Rajabova, Nilufar; Rajabov, Jamshid Nasrullaevich. *Tarix fanida axborot texnologiyalarining tutgan o'rni*. Qarshi davlat universiteti; Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti.

Tarix fanini o'qitishda ham boshqa fanlar qatori ma'lum bir yutuqlarga erishish, o'quvchilar faolligini oshirish va albatta, shu qatori o'qituvchining ham kasbiy mahoratini rivojlantirish eng asosiy maqsad hisoblanadi. Pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'qituvchidan fanni o'qitishda zamonaviy pedagogik bilim, ko'nikma va malakani ham talab etadi. Ya'ni o'qituvchi qaysi texnologiya yoki metod qaysi mavzu uchun qulay va o'rinli ekanligini bilishi uchun, avvalo, shu texnologiyalar haqida kerakli bilimga ega bo'lishi muhim sanaladi. Pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga olib kirishni oldindan loyihalash lozim. Bunda joy va sharoitlarni ham hisobga olish zarur. Ba'zi texnologiyalarni qo'llash uchun sinf xonasida yetarlicha sharoit bo'lmasligi ham mumkin. Yana bir jihat pedagogik texnologiyalarni tanlashdan oldin o'quvchi - talabalarning bilim salohiyatini ham hisobga olish zarur.³⁴

Axborot texnologiyalarni tarix fanini o'qitishda qo'llash o'quvchi-talabalarda quyidagi xususiyatlarni rivojlantiradi: avvalo, ularni tarix faniga qiziqishlarini orttiradi, ularda mustaqil va erkin fikrlash ko'nikmalarini yanada shakllantiradi, mantiqiy va tezkor fikrlashga o'rgatadi, o'zlarini tahlil qilish va baholashga o'rgatadi, bilim sohasida o'zgalardan ortda qolmaslikka o'rgatadi, mushohadali bo'lishga o'rgatadi, ularda tahliliy - tanqidiy yondashuvni rivojlantiradi, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi, natija va maqsadga intilishning muhim ekanligi haqida tushunchaga ega bo'lishadi, ulardagi tortinchoqlik o'rnini faollik degan muhim tushuncha egallaydi.

Zamonaviy texnologiyalar haqida so'z yuritar ekanmiz, yangilanayotgan O'zbekistonda ham bu sohada ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Keyingi yillarda axborot - kutubxona muassasalari faoliyatini axborotlashtirishni rivojlantirish maqsadida hukumatimiz tomonidan katta imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Elektron kutubxona "Internet" ning ajoyib imkoniyatlaridan biridir. Bu kutubxonaning elektron shaklidir. Kutubxona deganda odatda ko'z oldimizga kitoblar turgan uzundan uzoq kitob javonli katta xonalar keladi. Elektron kutubxonada "javonlar" vazifasini jildlar, kitoblar vazifasini Internet sahifalar bajaradi. Bu kutubxona ma'lumotlari elektron ko'rinishda bo'ladi va kompyuterda joylashadi. Bu kutubxonadan foydalanish juda qulay. Bunda dunyoning ixtiyoriy nuqtasidan elektron kutubxona ma'lumotlaridan foydalanish va zarur ma'lumot nusxasini ko'chirib olish mumkin.³⁵

³⁴ Boymirzayev, Xurshidjon Karimjanovich. *Tarix fanini o'qitishda pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish*. – Namangan: Namangan davlat universiteti, 2022. 20-21 b.

³⁵ "Xalq ta'limi" jurnali. 2017 yil №5-son.

Ayniqsa, tarix fanida zamonaviy pedagogik axborot texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning bilimlarini kengaytirishni o'rganishni qiziqarli va samarali qilishda muhim ro'l o'ynaydi. Zamonaviy texnologiyalar o'quvchilarga tarixni yanada interaktiv va jonli tarzda o'rganishga yordam beradi. Bu o'quvchilarga tarixga bo'lgan qiziqishni oshirish, fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda mustaqil o'rganishni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Multimedia resurslar ham axborotlashtirishda muhim o'rin tutadi, bularga audio, video, interaktiv grafikalar tarix fanini o'rganishda qiziqarli va samarali qiladi.

Shuni qayd etish lozimki, ta'lim tizimida sodir bo'layotgan shiddatli o'zgarishlar o'qituvchi-pedagoglardan talabalar ongida bugungi davr o'zgarishlariga hamohang ravishda ta'limga innovatsion o'qitish texnologiyalarini samarali tatbiq etishni va uning yangicha modellarini shakllantirishni taqozo etmoqda. Bunda turli didaktik vositalardan o'z o'rnida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Dars jarayonida interfaol dasturiy vositalardan foydalanish, internetdagi mavjud havola, elektron xarita va virtual muzeylarga kirish o'quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantiradi. Virtual muzeylarning havolasi orqali o'quvchilar, respublikamizda joylashgan va jahondagi mashhur muzeylarga sayohat qilishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. O'quvchilarning mavzuga oid egallagan bilimlari va kompetentligini baholash uchun ilm.uz sayti orqali elektron tarzda "Tarix" fanidan mavzuli test savollarini onlayn tarzda yechish hamda o'quvchilarning test savoliga bergan javoblarining to'g'ri yoki xatoligini qisqa muddatda aniqlash imkoniyatini beradi. Onlayn tarzda test yechishning afzallik tomonlari shundaki, qog'oz va printerda nashr ishlariga mablag' sarflanmasligi bilan bir qatorda o'qituvchi test savollarining javobini tekshirishga vaqt ajratmaydi. Eng asosiysi o'quvchilar o'zlarining bilim saviyalariga o'zlari baho beradilar³⁶.

Tarix ta'limida axborot texnologiyalardan foydalanish bugungi kunning talabi hisoblanadi. Tarix ta'limining asosiy vazifalaridan biri – bu ta'lim oluvchilarni tarix faniga oid katta hajmdagi axborotlarni tez idrok etish hamda qayta ishlashga tayyorlash, ularni zamonaviy ish vositalari va texnologiyalari bilan jihozlash, axborot madaniyatini shakllantirishdir. Shunday ekan bu jarayonni tezlashtirishda internet tarmog'ining o'rnida katta. Shuningdek, internet XX asrning 60 yillarida rivojlanib borishi internet tarmog'ida tarixiy manbalar va hujjatlardan foydalanish imkonini kengaytirdi. Xalqaro internet tarmog'ini rivojlanishi fanni axborot va manbalar bilan ta'minlashda muhim rol

³⁶ Yuldoshev, I. A. O'quvchilar mustaqil ta'limini tashkil etishda mobil texnologiyalardan foydalanish // *Zamonaviy ta'lim*. – Toshkent, 2017. - №12. 65-70 b.

o'ynamoqda. Bir qator davlatlar tarixchilari tomonidan ilmiy va ta'limiy ahamiyatga ega bo'lgan elektron resurslarni yaratilishi, tarixiy tadqiqotlarda va tarix o'qitish metodikasida yangi imkoniyatlarni ochib berdi.

Hozirda axborot texnologiyalari ko'pgina fanlarda bo'lgani kabi tarix fanida ham keng foydalanilmoqda. Tarixchilar uning yordamida o'z g'oya va qarashlarini tartibga solish bilan birga tarixiy ma'lumotlarning noyob tahlilini targ'ib qiladilar. Bunda tarixchilar uchun ilgari mavjud bo'lmagan ko'plab vositalar o'zaro hamkorlikning yangi imkoniyatlarini ochib beradi. Tarixchi uchun axborot texnologiyalari bilan ishlashi muhimdir. Ayniqsa, ilmiy tadqiqot ustida faoliyat olib borayotganda minglab yoki millionlab ma'lumotlar bilan ishlash imkonini beribgina qolmay balki, axborot texnologiyalar natijalarini qayta ko'rib chiqish hamda tekshirish imkonini beradi.

Tarixchi uchun zamonaviy kompyuter

- Ilmiy ishlarni yozish, tahrirlash va chop etish uchun zarur qurol;
- Berilganlar bazasini yaratish vositasi;
- Bilimlarni vizual taqdim etish vositasi, ya'ni diagramma, grafik, xarita, foto, kinofragment va boshqa ko'rinishlarda taqdim etish vositasi;
- Tasvirli, matnli, xarita ko'rinishidagi tarixiy manbalarni qayta ishlashning yangi usullarini ishlab chiqishga imkon beruvchi zamonaviy skanerlar tarixchilar uchun qo'shimcha imkoniyat;

· Statistik dasturlar paketlari tarixchilar uchun foydalanishning yangi qulay imkoniyatlari bilan boyitildi. Tarixchilar texnologik arxiv bo'ladimi yoki dasturlash bo'ladimi, texnologiyadan ehtiyot bo'lmasliklari kerak, balki uni quchoq ochib qabul qilishlari kerak. Gap shundaki, tarixchilar 1970-yillardan beri dasturlash bilan shug'ullanishadi. Mavzuni o'rganayotganda, tarixchilar oldida turgan eng katta afzallik va kamchilik - bu kitob va maqolalarning ko'pligi. Qanday qilib dasturlashni o'rganish, bu jarayonni kamroq qiyinlashtirishi mumkin. Dasturlash tarixchilarning o'z loyihalariga yondashuvini o'zgartirishi mumkin. Bu tarixchilarga katta hajmdagi ishlarni ilgari bo'lmagan tarzda ishlatishga imkon beradi³⁷. Tarixiy tadqiqotlar uchun tarixchilar dasturiy ta'minotdan foydalanib o'zlari dasturlar yaratishlari kerak. Chunki axborot dasturchilariga topshirgandan ko'ra tarixchilar o'zlari dastur yaratib boshqa mutaxasislarning ishini davom ettirish, rivojlantirish va kengaytirish tarixchilar uchun yaxshi biladigan mahorat hisoblanadi.

³⁷ Dadamirzayeva, G. A. (2023). *Raqamli tarix*. Toshkent: O'zkitobsavdonashriyoti 28 - 29 b.

O'zbekistonda ham raqamli avlodning yetti ekranli avlodi - televizor, kompyuter, planshet, tablet, fablet, smartfon va smartsoatlari paydo bo'lmoqda. Bunday zich raqamli muhitga ega bo'lish va u bilan doimiy o'zaro munosabat o'rnatish natijasida bugungi kun talabalarining fikrlashi va axborotlarga ishlov berish jarayonlari oldingi fikr yuritish va axborot jarayonlaridan tubdan farq qilmoqda³⁸.

Raqamli tarix fani raqamli texnologiyalar va hisoblash metodlariga asoslangan holda rivojlanadi. Tarixchi ilmiy faoliyati davomida ko'plab manbalar bilan birga raqamli ko'rinishdagi katta hajmli ma'lumotlarga duch keladi. Ulardan o'zi uchun kerak bo'lgan qismni qidirib topish va olishi uchun mavjud matnning mazmuni va ahamiyatini tahlil qilishi lozim bo'ladi. Shuning uchun raqamli tarixda hisoblash usullari matn tahlilidan keng foydalaniladi. Shu bilan birga bu fanda "data science" va miqdoriy metodlar ham qo'llaniladi³⁹. Avvallari ko'p ishlarni magnitofon, televizor turli xildagi videomagnitafonlardan foydalanilsa hozirgi kunga kelib kompyuter savodxonligi muhim bo'lib, inson qayerda yashamasin zaruratga aylanib bormoqda. Axborot texnologiyalarining markazida kompyuterlar turadi. Ular tarixiy manbalarni o'rganishda, o'qitishning texnik vositalaridan, ta'lim sifatini oshirishda, ilmiy-pedagogik izlanishlarda foydalanilmoqda.

Xulosa

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, insoniyat faoliyatining ko'pgina jabhalarini qamrab olgan axborotlashtirish jarayoni tarix fanini ham chetlab o'tmadi. Bu esa Tarix fanini boshqa fanlar singari axborot texnologiyalari va informatika bilan chambarchas bog'lanishiga olib keldi. Ko'rinib turibdiki tarix sohasida faoliyat yurutuvchi mutaxassislarni zamonaviy axborot texnologiyalari va axborot madaniyatiga oid bilimlarga ega bo'lish bugungi kun talabi desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu bilan birga tarix fanida axborot texnologiyalardan samarali foydalanish ta'lim sifatini oshiradi va yangi pedagogik bilim ko'nikmalarni shakllantiradi. Kelajakda raqamli texnologiyalardan tarix ta'lim tizimi jarayonlarida foydalanish, talabalarning dunyoqarash tafakkurlarni shakllantirib, mustaqil fikrlarni rivojlantiradi.

³⁸ Olimova, Z. I. *Tarix darslarini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish va uni amaliyotga tatbiq etish*. Andijon davlat pedagogika instituti. <https://doi.org/10.5281/zenodo.12170928>

³⁹ Muminov, K., & Komolov, M. (2023). *Digital Technology and Digital History*. Society and Innovations Journal. <https://inscience.uz/index.php/socinov/index>

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muminov, Xusanboy. Raqamli tarix [Matn]: darslik / X. Muminov. – Toshkent: “Nurafshon bizness”, 2022. – 47 b.
2. Rajabova, Nilufar; Rajabov, Jamshid Nasrullaevich. Tarix fanida axborot texnologiyalarining tutgan o‘rni. Qarshi davlat universiteti; Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti.
3. Boymirzayev, Xurshidjon Karimjanovich. Tarix fanini o‘qitishda pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish. – Namangan: Namangan davlat universiteti, 2022. 20-21 b.
4. “Xalq ta’limi” jurnali. 2017 yil №5-son.
5. Yuldoshev, I. A. O‘quvchilar mustaqil ta’limini tashkil etishda mobil texnologiyalardan foydalanish // Zamonaviy ta’lim. – Toshkent, 2017. - №12. 65-70 b.
6. Dadamirzayeva, G. A. (2023). *Raqamli tarix*. Toshkent: O‘zkitobsavdonashriyoti 28 - 29 b.
7. Olimova, Z. I. Tarix darslarini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish va uni amaliyotga tatbiq etish. Andijon davlat pedagogika instituti. <https://doi.org/10.5281/zenodo.12170928>
8. Muminov, K., & Komolov, M. (2023). *Digital Technology and Digital History*. Society and Innovations Journal. <https://inscience.uz/index.php/socinov/index>